



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

«MENENJMENT» KAFEDRASI

k.o`q. Saidov M.M., ass. Jumayeva D.X.

«Soliq va soliqqa tortish» fanidan

**Amaliy mashg`ulotlarni bajarish uchun o`quv-
uslubiy qo`llanma**

**5340200 “Menejment”(sohalar bo`yicha) yo`nalishi
bakalavrlari uchun**

B U X O R O - 2008 y.

«Menejment» kafedrası majlisining «__»_____ 200__ y. № __ bayoni bilan tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Bux OO va YESTI

Uslubiy kengashining

«__»_____ 200__ y. bayoni bilan tasdiqlangan.

Taqrizchilar: Buxoro «Bank va iqtisodiyot kolleji»
direktori, dotsent A.B.Nizomov
Bux OO va YESTI «Menejment» kafedrası
dotsenti Ulashev X.A.

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida mulkchilikning xilma-xil shakllari paydo bo`lmoqda, davlat mulki xususiylashtirilmoqda, hissadorlik jamiyatlari, kichik korxonalar, xususiy va qo`shma korxonalar vujudga kelmoqda. Mustaqil tovar ishlab-chiqaruvchilar o`rtasida raqobat hukm surmoqda. Bozor sharoitida korxonlar mustaqil ravishda chet el korxonalar bilan aloqalar o`rnatmokdalar. Tijorat banklari, birjalari, auktsionlar ochilmokda. Shu sharoitda moliyani boshkarish sohasidagi yuqori saviyali mutaxasislarni tayyorlash muhim ahamiyatga egadir.

Bizning taniqli professor-o`qituvchilarimiz «Soliq va soliqqa tortish» fanini o`rgatishda engil o`zlashtiradigan uslubni qo`llashga harakat qiladilar, chunonchi, talaba o`quv kursini tugatgandan keyin mustaqil ravishda to`g`ri va aniq olgan bilimlarini hayotda qo`llash imkoniga ega bo`lsin. Ushbu o`quv qo`llanmani yozishda biz amaldagi an`anani davom ettirishga intildik va talaba murakkab fanlarni o`rganishga o`tishidan oldin nazariya asoslarini to`lik o`zlashtirish imkonini beradigan ketma-ketlikda bayon etishga harakat qildik.

MUNDARIJA:

AMALIY MASHG`ULOTLARNI O`TKAZISH TARTIBI.....	4 bet.
Baholash mezonlari.....	6 bet.
1 - Mavzu: “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti va o`rganish usullari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi.....	8 bet
2- Mavzu. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig`i. Yagona soliq tizimi.....	9 bet.
3 - Mavzu:Yagona yer soligi Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish	11 bet.
4 - Mavzu:. Yalpi tushumdan undiriladigan soliq Qo`shilgan qiymat solig`i.....	13 bet.
5 - Mavzu: Aktsiz solig`i. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`i.....	15 bet.
6- Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan mol – mulk solig`i. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig`i.....	16 bet.
7 - Mavzu: Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig`i. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq	18 bet.
8 - Mavzu: Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.....	21 bet.
9 - Mavzu: Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq. Boshqa soliqlar va soliqsiz to`lovlar	22 bet.
Masalalarni echish bo`yicha namunalar.....	23 bet.
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	26 bet

AMALIY MASHG`ULOTLARNI O`TKAZISH TARTIBI

«Soliq va soliqqa tortish» fanini o`qitishda ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarida klaster, insert, akliy hujum usullari, keys-stadidan foydalanilib, muammoli ta`lim texnologiyalari, “bumerang” texnologiyasi, kabi ilg`or texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu fanni o`qitish pedagogikasining g`oyaviy poydevorini milliy ta`lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi hujjatlar sifatida 1997 yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tashkil etadi.

O`zbekiston kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta`lim jarayonidagi sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash, ya`ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo`lgan mutaxassislar tayyorlash lozimligini ta`kidlaydi. Buning uchun esa bevosita o`quv jarayonini yaxshilash, o`quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o`qitishni joriy qilish kerak.

Bu o`rinda shuni ta`kidlab o`tish kerakki, ta`limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo`ladi. Ta`limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo`lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta`lim bir xildir. O`qituvchi bilim emas, balki ta`lim beradi. Talaba esa ana shu ta`lim jarayonida bilimga ega bo`ladi. Buning uchun u mustaqil o`qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo`ladi, eshitganlari va o`qiganlarini sintez qiladi. Natijada mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantiradi va tafakkur sohibiga aylanadi.

O`quv jarayoni bilan bog`liq ta`lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma`ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va mul`timedia qo`llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o`rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta`lim ustivorligini ta`minlaydi. Ushbu aytilgan g`oyalardan kelib chiqqan holda «Soliq va soliqqa tortish» o`quv kursi bo`yicha ta`lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlarni sanab chiqamiz.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim. Bu ta`lim o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma`lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyiligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo`naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta`lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta`limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o`quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o`zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish. Demokratlik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi sub`ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta`lim. Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob`yektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta`minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash – yangi komp'yuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

Keltirilgan kontseptual yo`riqlarga asoslangan holda, «Soliq va soliqqa tortish» kursining maqsadi, tuzilmasi, o`quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma`lum sharoit va o`quv rejasida o`rnatilgan vaqt oralig`ida o`qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

O`qitishning usullari va texnikasi: ma`ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoviy usul, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, masalalar echish, amaliy ishlash usuli.

O`qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O`qitish vositalari: o`qitishning an`anaviy shakllari (darslik, ma`ruza matni, uslubiy qo`llanma) bilan bir qatorda - komp'yuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari: kuzatish, blits-so`rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari:

o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash:


o`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari va yozma ishlar yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Har bir o`quv mashg`uloti bosqichidagi o`qitish natijalarini (o`quv topshiriqlarni bajarishi va testlarni baholash, har bir o`quv mashg`ulotdagi talabaning o`quv faoliyati reytingini baholash) hamda butun maxsus kurs davomidagi (har bir talabaning joriy, oraliq va yakuniy natijalarini reyting tizimi orqali baholash) natijalarni baholash.

YAngi vosita va usullarni qo`llash:

ta`lim bosqichida komp`yuter va informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ma`lumotlarni ko`rgazmali shaklda etkazib beradi. Berilgan kontseptual qoidalarga hamda «Soliq va soliqqa tortish» maxsus kursining maqsadi, vazifalari, hajmi va mazmuniga asoslangan holda ta`lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli; vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma`lumotlarni nazorat qilish usul va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari aniqlandi.

BAHOLASH MEZONLARI

Talabalar bilimini baholashda eng asosiy ko`rsatkich mustaqil fikrlay olish qobiliyati sanaladi. Shu sababli talabaning bilim va malakalarini baholashda dastavval uning mustaqil fikrlash va mushohada yuritish, shu bilan birga mustaqil ravishda xulosa chiqara olish qobiliyatlariga qaraladi. Talabalar bilimi jadvalda ko`rsatilgan mezonlar asosida baholanadi. YAna shuni ta`kidlash kerakki, «qoniqarsiz» bahodan tashqari boshqa barcha baholarning asosi sifatida talabaning xulqi va odobiga qaraladi. YA`ni, talaba fanni yaxshi o`zlashtirgan bo`lsada, uning qoniqarsiz xulqi fandan oladigan bahosiga ta`sir qilishi mumkin.



BAHOLASH USLUBLARI

Nazorat turi	Jami ball	Nazorat shakli va ballari
Joriy nazorat 1	30	Davomat 4 Amaliy ishlar 13 Mustaqil ishlar 13
Oraliq nazorat 1	25	YOzma ish.
Joriy nazorat 2	30	Davomat 4 Amaliy ishlar 13 Mustaqil ishlar 13
Yakuniy nazorat	15	Test . Jami 30 ta savol. Har bir savolga 0.5 ball.YOzma ish. Xar bir variantga 6 ta savol.

1 - Mavzu: Soliqlar va Soliqqa tortish fanining predmeti va uni o`rganish usullari. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi.

Savollar:

1. Fanning predmeti va ob`yekti nimadan iborat
2. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat
3. "Soliqlar va soliqqa tortish" fani boshqa iqtisodiy fanlar bilan qanday bog`langan.
4. Soliqlarning va soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
5. Soliqlarning tavsifiy xususiyatlari va umumiy belgilari nimalardan iborat
6. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalarini qanday tavsiflaysiz.
7. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari orasidagi farq qanday.
8. Soliqlar, yig`imlar, boj va boshqa soliqsiz to`lov tushunchalari bir —biridan qanday farqlanadi
9. Soliqqa tortishning tamoyillarini izohlang.

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Soliq — bu:

- A) Byudjetga tushadigan majburiy tulovdir
- B) Soliq to`lovchi bilan soliq soluvchi o`rtasidagi munosabatdir
- C) Milliy daromadning davlat ixtiyoriga olinadigan bir qismidir
- D) Byudjetga tushadigan majburiy to`lov, Soliq to`lovchi bilan soliq soluvchi o`rtasidagi munosabat, milliy daromadning davlat ixtiyoriga olinadigan bir qismi bo`lib, davlat va mahalliy byudjetlarni tashkil etishning asosiy vositasidir

2. Soliq qonunchiligi buzilganda Soliq organlari tomonidan soliq to`lovchilarga

- A) Moliyaviy jazolar qo`llaniladi
- B) Ma`muriy jazolar qo`llaniladi
- C) Jinoiy jazo qo`llaniladi
- D) Moliyaviy, ma`muriy va jinoiy jazo qo`llaniladi

3. Fuqarolarning qaysi bir daromadlari Soliqqa tortilmaydi.

- A) Aliment oluvchi fuqarolarning alimentlari
- B) Advokatlarning yuridik maslaxatxonalarida ishlaganlari uchun olgan mukofot turlari
- C) Aspirantlar, ordinatorlar va shu toifadagilarning stipendiyalari, daromadlari
- D) Aliment oluvchi fuqarolarning alimentlari , advokatlarning yuridik maslaxatxonalarida ishlaganlari uchun olgan mukofot turlari, aspirantlar va shu toifadagilarning stipendiyalari, daromadlari, Fuqarolar, shuningdek, diniy tashkilotlar, korxonalar, muassasalarda ishlaydigan ruxoniylarga xayriya muassasalari to`laydigan daromadlar

4. Soliq kodeksining loyixasi qachon umumxalk muhokamasiga taqdim qilindi

- A) 1993 yilda
- B) 1994 yilda
- C) 1995 yilda
- D) 1996 yilda

5. Soliq qo'mitasi qachon tashkil topgan

- A) 1991 yil 14 iyunda
- B) 1991 yilda 12 avgustda
- C) 1992 yilda 9 dekabrda
- D) 1994 yilda

6. chet el fuqarolarining daromadlari Soliqqa tortiladimi

- A) Tortilmaydi
- B) Barcha daromadlari tortiladi
- C) Bir kismi tortiladi
- D) 75 foizi tortiladi

7. Quyida qayd etilgan omillarning qaysi biri soliq zonalarini aniqlashda e'tiborga olinadi

- A) yer maydonlarining bozorga yaqinligi
- B) Olingan hosilni sotish uchun transportning qulayligi
- C) Tijorat maqsadida ko`rilgan binolardan foydalanishning qulayligi
- D) Yer maydonlarining bozorga yaqinligi, olingan hosilni sotish uchun transportning qulayligi tijorat maqsadida ko`rilgan binolardan foydalanishning qulayligi, suv, gaz va elektr quvvati kabi resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi

8. Soliq ob'yekti deganda:

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi
- B) Soliq to'lovchilar tushuniladi
- C) Huquqiy (yuridik shaxslar), ya'ni korxonalar, firma, kompaniya, tashkilot va x.k. lar tushuniladi
- D) Soliq solinadigan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat tushuniladi

2 - Mavzu: Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i. Yagona soliq tizimi.

Savollar:

1. Soliq munosabatlarining qanday ishtirokchilarini bilasiz?
2. Soliq ob'yekti nima? Soliq ob'yekti va soliq manbaining qanday o'xshashlik tomonlari bor
3. Soliqqa tortiladigan baza nima?
4. Soliq me'yorlari va stavkasining mazmuni nimadan iborat?
5. Soliq stavkasining qanday turlarini bilasiz?
6. Soliq imtiyozlari deganda nimani tushunasiz? Uning qanday turlarini bilasiz?
7. Soliqni to'lash muddatlari va soliq davri tushunchalarini qanday tushunasiz?
8. Soliqni undirish usullarini izohlang?

9. Soliq tizimi nima? Soliq tizimining tarkibiga nimalar kiradi?
10. Egri va to'g'ri soliqlar deganda nimalarni tushunasiz?
11. Egri va to'g'ri soliqlar bir —biridan qanday farqlanadi?
12. Buxgalteriyada hisobga olinishiga ko'ra soliqlarni tasniflash.
13. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishning asosiy yunalishlarini izohlang.

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish huquqiga egami
 - A) ega emas
 - B) Xududi doirasida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli
 - C) Xududi doirasidan tashqarida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli
 - D) ha ega.

2. Korxonada, tashkilot va muassasalar tomonidan o'z ishchi, xodimlariga berilgan pul yoki buyum sovgalarining qiymati ham soliqqa tortiladimi
 - A) Tortilmaydi
 - B) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga bir yarim karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi
 - C) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga uch karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi
 - D) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga to'rt karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi

3. Moddiy yordam summasidan soliq olinadimi
 - A) Olinmaydi
 - B) qiymati yiliga ikki karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan moddiy yordam summasidan olinadi
 - C) qiymati yiliga uch karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan moddiy yordam summasidan olinadi
 - D) qiymati yiliga to'rt karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan moddiy yordam summasidan olinadi

4. Mahalliy hokimiyatlarga to'lanadigan imtiyozsiz ijara haqi miqdori
 - A) yer soligi miqdoridan kam bo'lishi mumkin
 - B) yer soligi miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas
 - C) yer soligidan bir necha barobar ko'p bo'lishi mumkin
 - D) yer soligi miqdorining 50 foizi bo'lishi mumkin

5. Byudjetga o`tkazish nuqtai nazardan Soliqlar quyidagi turlarga bo`linadi
- A) Jismoniy shaxslardan tushadigan soliqlar
 - B) To`gri soliqlar
 - C) egri soliqlar
 - D) Mahalliy soliqlar

3 - Mavzu: Yagona yer solig'i. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqlarga tortish.

Savollar:

1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Soliqni to'lovchilarning qanday toifalarini ajratish mumkin?
3. Soliq ob'yektiga nimalar kiradi?
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'ining qanday stavkalarini bilasiz? Soliqqa tortish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
5. Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari haqida ma'lumot bering?
6. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyatini tushuntiring?
7. Soliqni to'lovchilari tarkibiga kimlar kiradi?
8. Soliq ob'yekti tarkibiga nimalar kiradi?
9. Yagona soliqning qanday stavkalari haqida ma'lumotga egasiz?
10. Soliqni hisoblash uslubiyatini tushuntiring.

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1 Yer soligini kim to'laydi

- A) Fuqarolar
- B) Qishloq xo'jalik korxonalarini
- C) Sanoat korxonalarini
- D) Barcha fuqarolar, qishloq xo'jaligi korxonalarini, sanoat korxonalarini

2. Quyidagi qayd qilinganlardan qaysi biri Respublika Soliqlari va to'lovlariga taalluqli:

- A) Avtotransportlar saqlanadigan joydan foydalanganlik uchun yigim
- B) Otchoparlarda o'tkazilgan poygadagi yutuq uchun yigim
- C) Aholi manzilgoxlari xududini supurib-sidirishi uchun yigim
- D) yer soligi

3. Qaysi hollarda korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbar shaxslariga 5 minimal ish haqi summasidan 7 minimal ish haqi summasigacha jarima solinadi

- A) Foyda (daromad) summasini yashirsa yoki kamaytirib ko'rsatsa
- B) Soliq solish ob'yektini yashirsa yoki uni hisobga olmasa

C) Buxgalteriya xisobotini o`rnatilgan tartibda yurgizmasa.
D) Foyda (daromad) summasini yashirsa yoki kamaytirib ko`rsatsa, Soliq solish ob`yektini yashirsa yoki uni hisobga olmasa, buxgalteriya hisobotini o`rnatilgan tartibda yurgizmasa, kassani yuritish tartiblarini buzish holatlari uchrasa

4. Quyida qayd etilgan soliq turlarining qaysi biri aholi to`laydigan soliqqa kiradi.

- A) Transport vositalari soligi
- B) Mol-mulk soligi
- C) Yer soligi
- D) Aholi daromadiga soliq

5. Soliq qonunchiligi buzilganda soliq organlari tomonidan soliq to`lovchilarga

- A) Moliyaviy jazolar qo`llaniladi
- B) Ma`muriy jazolar qo`llaniladi
- C) Jinoiy jazo qo`llaniladi
- D) Moliyaviy, ma`muriy va jinoiy jazo qo`llaniladi

6. Korxonalar foydasiga soliq solishda soliq solish bazasi nima hisoblanadi

- A) Korxonaning moddiy va unga tenglashtirilgan xarajatlar, ajratmalar va to`lovlari
- B) Korxonada balansidagi «Moliyaviy xarajatlar» shaklining 170-qatoridagi ko`rsatkich
- C) Korxonaning umum xo`jalik faoliyatidan olgan foydasi
- D) Balansdagi foyda bilan soliqqa tortiladigan qism o`rtasidagi doimiy farq

Mustaqil yechish uchun masala

Chet el investisiyalari ishtirokidagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik shaxslar 2000 yil 18 dekabrda ro`yxatdan o`tgan, ushbu korxonalariga 2008 yil 15 mart qabul olish dalolatnomasiga asosan o`zbek tomoni korxonalarining ustav jamg`arma sifatida ishlab chiqarish sexini bergan.

Savol. Ishlab chiqarish sexi egallangan yer uchastkasi uchun qaysi davrdan boshlab va kim tomonidan er solig`i to`lana boshlanishi kerak?

4 - Mavzu: Yalpi tushumdan undiriladigan soliq. Qo`shilgan qiymat solig`i.

1. Belgilangan daromaddan yagona soliqni to`lovchilar kimlar?
2. Soliq ob`yektini aniqlash uslubiyoti qanday?
3. Soliq stavkalari hamda soliqni hisoblash va to`lash tartiblari
4. haqida nimalarni bilasiz?

5. Qo`shilgan qiymat solig`ining soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat Qo`shilgan qiymat solig`ining shakllanishi va rivojlanishi necha bosqichdan iborat.
6. QQS to`lovchilari kimlar?
7. Soliq ob`yektiga nimalar kiradi?
8. QQSning qanday stavkalari mavjud?
9. QQS bo`yicha imtiyozlar qaysilar?
10. Soliqni hisoblash va byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan soliq summasini aniqlash usuli qanday?
11. Schyot —fakturani to`ldirish va soliqni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish tartiblarini tushuntiring?

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Quyidagi qaysi bir formula yordamida qo`shilgan qiymat soligi (QQS) summasi aniqlanadi

- A) $QQS = (STO \times 18) : 100$
- B) $QQS = (KKN \times 18) : 118$
- C) $QQS = ((TQQS + VTS)$
- D) $QQS = (KKN \times 18) \times 100$

2. Korxonalar foydasiga soliq solishda soliq solish bazasi nima hisoblanadi?

- A) Korxonaning moddiy va unga tenglashtirilgan xarajatlar, ajratmalar va to`lovlari
- B) Korxonada balansidagi «Moliyaviy xarajatlar» shaklining 170-qatoridagi ko`rsatkich
- C) Korxonaning umumxo`jalik faoliyatidan olgan foydasi
- D) Balansdagi foyda bilan Soliqqa tortiladigan qism o`rtasidagi doimiy fark

3. Bir korxonaning ikkinchi korxonaga bergan xayriya mablagidan daromad soligi olinadimi?

- A) Olinmaydi
- B) Xayriya mablagi soliqqa tortiladigan daromadning bir foizidan ortgan taqdirda olinadi
- C) Xayriya mablagi jami daromadni bir foizidan kam bo`lgan taqdirda olinadi
- D) Xayriya mablagi Soliqqa tortiladigan daromadning uch foizidan ortgan taqdirda olinadi

Korxonalar tomonidan to`lanadigan soliqlar qaysi manbalar asosida tekshiriladi

- A) Bosh daftar
- B) Memorial orderlar
- C) Buxgalteriya hisobi
- D) Bosh daftar , memorial orderlar, buxgalteriya hisobi

5. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlar soliqlar bo`yicha imtiyozlar berish huquqiga egami?

- A) ega emas
- B) Xududi doirasida joylashgan to`lovchilarga imtiyoz berishga haqli

- C) Xududi doirasidan tashqarida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga xaqli
D) ha ega.

6. Quyida qayd etilganlarning qaysi biri qo'shimcha qiymat soligiga tortish ob'yekti bo'lib hisoblanadi

- A) Korxonaning o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar oboroti
B) CHetdan sotib olgan mahsulotlar oboroti
C) Iste'mol qiymatini yaratish bilan bogliq bo'lgan bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi
D) Korxonaning o'zi ishlab chiqargan , chetdan sotib olgan mahsulotlar oboroti, iste'mol qiymatini yaratish bilan bogliq bo'lgan bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, korxonaning ichida o'z iste'moli uchun ishlatiladigan, mahsulot tannarxiga qo'shilmaydigan xarajatlar bilan bogliq bo'lgan tovarlar va xizmatlar bo'yicha sotish oboroti

8. Quyidagi soliq turining qaysi biri progressiv soliq turi bo'lib hisoblanadi

- A) yalpi daromad soligi
B) Foyda soligi
C) yalpi daromadning soliqqa tortiladigan qismidan olinadigan soliq
D) Aktsiz soligi

9. Soliq summasi hisoblanayotganda yalpi daromaddan:

- A) Soliqqa tortilmaydigan minimum chegirib tashlanadi
B) Soliqqa tortiladigan minimum chegirib tashlanadi
C) Soliqqa tortiladigan minimum qisman chegirib tashlanadi
D) Soliqqa tortilmaydigan minimum qisman chegirib tashlanadi

10. Soliq ob'yekti deganda:

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi
B) Soliq to'lovchilar tushuniladi
C) Huquqiy (yuridik shaxslar), ya'ni korxonalar, firma, kompaniya, tashkilot va x.k. lar tushuniladi
D) Soliq solinadigan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat tushuniladi

5 - Mavzu: Aktsiz solig'i. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i.

Savollar:

1. Aktsiz solig'ining mohiyati va ahamiyatini ayting. O'zbekiston
2. Respublikasi xududida ishlab chiqarilgan, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxatini keltiring.
3. Aktsiz solig'ini to'lovchilar tarkibiga kimlar kiradi?
4. Soliqqa tortish ob'yekti va hisoblash tartiblarini izohlang.
5. Aktsiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi?

6. O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlardan aktsiz solig'ini hisoblash va undirish tartibi qanday?
7. O`zbekiston Respublikasi soliq, tizimiga mol —mulk solig'ini joriy etish sabablari nimada?
8. Yuridik shaxslar mol — mulk solig'ini to'lovchilari tarkibiga kimlar kiradi?
9. Yuridik shaxslardan mol — mulk solig'ini undirishda mol — mulkning yillik o`rtacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi qanday?
10. Mol—mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlarni sanang.
11. Mol —mulk solig'ini hisoblash, byudjetga o'tkazish tartibini tushuntiring. Buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi qanday?

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Aktsiz soligi stavkasini kim belgilaydi

- A) Oliy majlis
- B) Vazirlar mahkamasi
- C) Moliya vazirligi
- D) Davlat soliq qo'mitasi

2. Aktsiz soligi asosan qanday tovarlardan olinadi

- A) Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan
- B) Hamma tovarlardan
- C) Keng iste'mol uchun muhim bo'lmagan tovarlardan
- D) Keng iste'mol uchun muhim bo'lgan tovarlardan

3. Aktsiz soligini byudjetga:

- A) Bevosita tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar to'laydi
- B) Bevosita tovarni sotib oluvchi (iste'mol qiluvchi) korxonalar to'laydi
- C) Aholi to'laydi
- D) Bevosita tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar, bevosita tovarni sotib oluvchi (iste'mol qiluvchi) korxonalar va aholi to'laydi

4. Uzbekistan soliq qonunchiligiga binoan har bir korxonalar o'z daromadidan bir yilda:

- A) 24 marta bunak (avans) to'lovlarini amalga oshirishi kerak
- B) 4 marta chorak to'lovlarini amalga oshirishi kerak
- C) 1 marta haqiqiy to'lovlarni amalga oshirish kerak
- D) 6 marta bunak (avans) to'lovlarini amalga oshirishi kerak

5. Korxonalar soliq idoralari xodimlarini o'z kassa va omborlariga kiritmaslikka haqqi bormi

- A) haqqi bor
- B) haqqi yo'q
- C) Korxonalar raxbariga bog'liq
- D) Korxonalar bosh buxgalteriga bog'liq

6. Soliqqa tortilmaydigan minimum deb:

- A) Korxonalar va tashkilotlar hamda aholi daromadlarining soliqdan tamomila ozod etilgan qismiga aytiladi.
- B) Mazkur xududda doimiy ishchi bo'lgan va kalendar yilida 183 kundan ko'proq ishlaganlarga aytiladi
- C) Mazkur xududda doimiy ishchi bo'lgan va kalendar yilida 175 kundan ko'proq ishlaganlarga aytiladi
- D) Mazkur xududda doimiy»; ishchi bulgan va kalendar yilida 175 kundan kam ishlaganlar

Mustaqil yechish uchun masala

Kir sovuni bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'ini hisoblang, agar korxonaning bir dona kir sovun ishlab chiqarish uchun xarajatlari -180 so'mni, foyda me'yori – 25% ni, aktsiz solig'i stavkasi -20%ni tashkil etsa.

Echim

Bir dona kir sovunning hisoblangan narxi (xarajat plusfoyda) : $180+25\% \times 180=225$ so'm=225so'm.

Soliqqa tortiladigan oborot = $100 \times 225:100-20=281,25$ so'm

Aktsiz solig'i summasi $20\% \times 281,25=56,25$ so'm.

6- Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan mol – mulk solig'i. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i.

Savollar:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol—mulk solig'ining to'lovchilarga kimlar kiradi?
2. Jismoniy shaxslar mol — mulkining turlari va soliq ob'yektini izohlang.
3. Mol—mulk turlari buyicha soliqni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
4. Jismoniy shaxslardan mol —mulk solig'ini undirish tartibi qanday?
5. Yer solig'ini soliq tizimiga joriy etishning asosiy sabablarini tushuntiring?
6. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari kimlar?
7. Yer solig'i ob'yekti nima?
8. Yer solig'i stavkalari qanday, uni xududiy tabaqalashtirish nimalarga asoslanadi?
9. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini sanang.
10. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini qanday tushuntirasiz?
11. Qishloq, xo'jalik korxonalar uchun yagona yer solig'ini joriy etishning ijtimoiy iqtisodiy sabablari va zaruriyatini izohlang
12. Yer solig'ini hisoblash va to'lash tartiblari qanday amalga oshiriladi?
13. Hisoblangan soliq summasini buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibini bilasizmi?

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Tijorat bilan shugullanadigan xususiy korxonalar qaysi soliqning qaysi biri taallukli
- A) Foyda soligi

- B) Daromad soligi
- C) Xususiy korxonalar xoxishi bilan to'lanadigan soliq
- D) yalpi daromadning daromadlilik darajasi, faoliyat turiga, korxonaning joylashgan joyiga qarab solinadigan soliq

2. Xususiylashtirishdan tushgan mablaglar soliqqa tortiladimi.

- A) Tortilmaydi
- B) Korxonalar mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablaglar soliqqa tortiladi
- C) Fuqarolar mulkidan xususiylashtirishdan tushgan mablaglar soliqqa tortiladi
- D) fakat aholi sotib olgan aksiyalar soliqqa tortiladi

3. Fuqarolarning qaysi bir daromadlari Soliqqa tortilmaydi

- A) Aliment oluvchi fuqarolarning alimentlari
- B) Advokatlarning yuridik maslahatxonalarida ishlaganlari uchun olgan mukofot turlari
- C) Aspirantlar, ordinatorlar va shu toifadagilarning stipendiyalari, daromadlari
- D) Aliment oluvchi Fuqarolarning alimentlari , advokatlarning yuridik maslahatxonalarida ishlaganlari uchun olgan mukofot turlari, aspirantlar va shu toifadagilarning stipendiyalari, daromadlari, Fuqarolar, shuningdek, diniy tashkilotlar, korxonalar, muassasalarda ishlaydigan ruxoniylarga xayriya muassasalari to'laydigan daromadlar

4. Fuqarolarning daromadidan olinadigan soliqni hisoblashda quyidagi formulaning qaysi biri qo'llaniladi

- A) Soliq summasi = $(STD - STM) \cdot SS$
- B) Soliq summasi = $(STD + STM) \times SS$
- C) Soliq summasi = $(STD - STM) : SS$
- D) Soliq summasi = $(STD + STM) : SS$

5. Quyidagi soliq turining qaysi biri progressiv soliq turi bo'lib hisoblanadi

- A) yalpi daromad soligi
- B) Foyda soligi
- C) yalpi daromadning Soliqqa tortiladigan kismidan olinadigan soliq
- D) Aktsiz soligi

6. Paydo bo'lish manbaiga qarab soliqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- A) To'g'ri soliqlar
- B) egri soliqlar
- C) Huquqiy shaxslardan tushadigan soliqlar
- D) Davlat soliqlari

7. Soliq qo'mitasi qachon tashkil topgan

- A) 1991 yil 14 iyunda
- B) 1991 yilda 12 avgustda
- C) 1992 yilda 9 dekabrda
- D) 1994 yilda

8. Korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar qaysi manbalar asosida tekshiriladi

- A) Bosh daftar
- B) Memorial orderlar
- C) Buxgalteriya hisobi
- D) Bosh daftar , memorial orderlar, buxgalteriya hisobi

Mustaqil yechish uchun masala

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlarning bahosi bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shaxri va viloyat markazlarida 1800 ming so'm, boshqa shahar va qishloq joylarida – 800 ming so'm miqdorda mol-mulkning shartli qiymati qabul qilindi, so'ngra ular qayta baholanganidan keyin qayta hisob kitob qilindi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri texnik inventarizatsiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi.

Misol.

2-xonali (qayta baholangan) kvartiraning bahosi 334200 so'mni tashkil etadi. Mol-mulk solig'i $0,5\% \times 334200 = 1671$ so'mga teng.

7 - Mavzu: Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq.

Savollar:

1. Yer solig'ini soliq tizimiga joriy etishning asosiy sabablarini tushuntiring?
2. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari kimlar?
3. Yer solig'i ob'yekti nima?
4. Yer solig'i stavkalari qanday, uni xududiy tabaqalashtirish nimalarga asoslanadi?
5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini sanang.
6. Yer solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini qanday tushuntirasiz?
7. Qishloq, xo'jalik korxonalar uchun yagona yer solig'ini joriy etishning ijtimoiy iqtisodiy sabablari va zaruriyatini izohlang
8. Yer solig'ini hisoblash va to'lash tartiblari qanday amalga oshiriladi?
9. Hisoblangan soliq summasini buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibini bilasizmi?
10. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati nimada?
11. Jismoniy shaxslar yalpi daromadining tarkibiga nimalar kiradi?
12. Soliq to'lovchilari kimlar? Nerezident jismoniy shaxslarni
13. Soliqqa tortish bo'yicha nimalarni bilasiz?
14. Soliq ob'yektiga nimalar kiradi?
15. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning qanday stavkalari bor?
16. Soliqni hisoblash va byudjetga undirish tartibini tushunti ring.

17. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish xususiyatlari qanday?
18. Deklaratsiya deganda nimani tushunasiz? Uning qanday turlari bor? Deklaratsiyani to'ldirish tartibi va topshirish muddatini izohlang.

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Quyidagi qayd qilinganlardan qaysi biri Respublika Soliqlari va to'lovlariga taalluqli:
- A) Avtotransportlar saqlanadigan joydan foydalanganlik uchun yigim
 - B) O'tchoparlarda o'tkazilgan poygadagi yutuq uchun yigim
 - C) Aholi manzilgohlari xududini supurib-sidirishi uchun yig'im
 - D) yer soligi
2. Quyida qayd etilgan soliq turlarining qaysi biri aholi to'laydigan soliqqa kiradi.
- A) Transport vositalari solig'i
 - B) Mol-mulk solig'i
 - C) Yer solig'i
 - D) Aholi daromadiga Soliq
3. Chet el fuqarolarining daromadlari soliqqa tortiladimi
- A) Tortilmaydi
 - B) Barcha daromadlari tortiladi
 - C) Bir qismi tortiladi
 - D) 75 foizi tortiladi
4. Korxonalar, tashkilot va muassasalar tomonidan o'z ishchi, xodimlariga berilgan pul yoki buyum sovg'alarining qiymati ham soliqqa tortiladimi
- A) Tortilmaydi
 - B) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga bir yarim karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi
 - C) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga uch karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi
 - D) Faqat bu sovgalarning qiymati yiliga to'rt karrali Soliqqa tortilmaydigan ish haqi minimumidan oshgan qismigina tortiladi
5. Soliq ob'yekti deganda:
- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi
 - B) Soliq to'lovchilar tushuniladi
 - C) Huquqiy (yuridik shaxslar), ya'ni korxonalar, firma, kompaniya, tashkilot va h.k. lar tushuniladi
 - D) Soliq solinadigan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat tushuniladi
6. Soliqqa tortilmaydigan minimum deb:

- A) Korxonalar va tashkilotlar hamda aholi daromadlarining soliqdan tamomila ozod etilgan qismiga aytiladi.
- B) Mazkur xududda doimiy ishchi bo'lgan va kalendar yilida 183 kundan ko'proq ishlaganlarga aytiladi
- C) Mazkur xududda doimiy ishchi bo'lgan va kalendar yilida 175 kundan ko'proq ishlaganlarga aytiladi
- D) Mazkur hududda doimiy; ishchi bo'lgan va kalendar yilida 175 kundan kam ishlaganlar.

7. Fuqarolarning daromadidan olinadigan soliqni hisoblashda quyidagi formulaning qaysi biri qo'llaniladi

- A) Soliq summasi = $(STD - STM) \cdot SS$
- B) Soliq summasi = $(STD + STM) \times SS$
- C) Soliq summasi = $(STD - STM) : SS$
- D) Soliq summasi = $(STD + STM) : SS$

8. Yer solig'ini kim to'laydi

- A) Fuqarolar
- B) Qishloq xo'jalik korxonalarini
- C) Sanoat korxonalarini
- D) Barcha Fuqarolar, kishloq xo'jaligi korxonalarini, sanoat korxonalarini

Mustaqil yechish uchun masala

Noqulay tabiiy – iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar (ish stajiga ustamalar, baland tog'lik, dasht va suvsiz tumanlardagi ishlar uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlar).

Bunday holatda soliq 13 % lik stavka bo'yicha undiriladi.

Misol.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitda ishlagan ishchining yil davomida 540 ming so'mni tashkil etgan. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq va belgilangan koeffitsientlar bo'yicha bo'lgan ish haqiga qo'shimcha to'lov 128 ming so'mni tashkil etgan.

Ish haqiga daromad solig'i umumiy belgilangan tartibda soliq shkalasini qo'llagan holda hisoblanadi va yil uchun 142 ming so'mdan iborat bo'ladi.

Noqulay tabiiy sharoitlari bilan bog'liq va belgilangan koeffitsientlar bo'yicha bo'lgan ish haqiga qo'shimcha to'lov 13 % lik soliq stavkasi bo'yicha undiriladi va u quyidagini tashkil etadi: $(128000 \times 13\%) = 16,6$ ming so'm. SHunday qilib umumiy daromad solig'i = $142 + 16,6 = 158,6$ ming so'm.

8 - Mavzu: Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Savollar:

1. Infratuzilmani rivojlantirish solig'ining iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Soliqni to'lovchilar kimlar?
3. Soliq ob'yektiga nimalar kiradi?

4. Infrastrukturami rivojlantirish solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar berilgan?
5. Soliqni hisoblash usullari va byudjetga to'lash tartibi
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va uni joriy etish sabablarini tushuntiring.
7. Soliq ob'yektiga nimalar kiradi va uni aniqlash tartibi qanday ?
8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va uni tabaqalashtirish mezonlari qanday?
9. Soliqni hisoblash tartibi qanday?
10. Hisoblangan soliqni byudjetga to'lash tartibi va buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi haqida nimalarni bilasiz?

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Soliq summasi hisoblanayotganda yalpi daromaddan:
 - A) Soliqqa tortilmaydigan minimum chegirib tashlanadi
 - B) Soliqqa tortiladigan minimum chegirib tashlanadi
 - C) Soliqqa tortiladigan minimum qisman chegirib tashlanadi
 - D) Soliqqa tortilmaydigan minimum qisman chegirib tashlanadi

2. Soliq kodeksining loyixasi qachon umumxalk muxokamasiga taqdim qilindi
 - A) 1993 yilda
 - B) 1994 yilda
 - C) 1995 yilda
 - D) 1996 yilda

3. Soliq qo'mitasi qachon tashkil topgan
 - A) 1991 yil 14 iyunda
 - B) 1991 yilda 12 avgustda
 - C) 1992 yilda 9 dekabrda
 - D) 1994 yilda

4. Soliq sub'ekti deganda:
 - A) Soliq undiruvchilar va soliq to'lovchilar tushuniladi
 - B) Soliq solinadigan daromad tushuniladi
 - C) Soliq solinadigan ish haqi tushuniladi
 - D) Soliq solinadigan mol-mulk tushuniladi

5. To'g'ri soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi
 - A) Foyda soligi
 - B) Bojxona boji
 - C) Davlat poshlinasi
 - D) Qushilgan qiymat soligi

6. Agar korxonah rahbarlari Soliq idoralari xodimlarini korxonaga, uning kassasiga kirishga ruxsat bermasa, u holda Soliq idorasi tomonidan ularga qanday chora ko`riladi
- A) Sudga beriladi
 - B) Korxonaning bankdagi scheti operatsiyasini to`xtatib qo`yadi
 - C) qattiq xayfsan beriladi
 - D) Jinoiy jazo beriladi

Mustaqil yechish uchun masala

Toshkent shahar "Suvoqava" trestining bergan ma`lumotiga ko`ra shahar vodoprovod tarmog`iga suv 72% er yuzadagi va 28% er osti manbalardan kelib tushadi. Faraz qilaylik, korxonah bir oy davomida 10 ming kub.m suv olgan. U holda olingan suvdan $10000 \times 72 : 100 = 7200$ kub.m hajmi er yuzasidagi suv, $10000 - 7200 = 2800$ kub.m hajmi er osti suvdan olingan.

2005 yil uchun ishlab chiqarish korxonalariga soliq stavkalar er yuzasidan olingan suv uchun-640 tiyin va er osti suv uchun-820tiyin qilib belgilangan.

Umumiy soliq summasi $(7200 \times 640) + (2800 \times 820) = 690400$ so`m.

9 - Mavzu: Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq. Boshqa soliqlar va soliqsiz to`lovlar.

Savollar:

1. Yer osti boyliklardan foydalanishni soliqqa tortish zarurligi va sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Mazkur soliqni to`lovchilar kimlar?
3. Boshqa soliqlar va soliqsiz to`lovlar. Jismoniy shaxslarning benzin, dizel yoqilg`isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
4. Soliqni to`lovchilar, uni hisoblash va byudjetga to`lash tartibi.
5. Davlat bojlari va bojxona bojlari.
6. Bojlarni hisoblash va to`lash tartibi.
7. Mahalliy yig`imlarni undirish va mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog`i.

DIAGNOSTIK TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR:

1. Soliq qonunchiligi buzilganda Soliq organlari tomonidan soliq to`lovchilarga
 - A) Moliyaviy jazolar qo`llaniladi
 - B) Ma`muriy jazolar qo`llaniladi
 - C) Jinoiy jazo qo`llaniladi
 - D) Moliyaviy, ma`muriy va jinoiy jazo qo`llaniladi
2. Chet el fuqarolarining daromadlari soliqqa tortiladimi
 - A) Tortilmaydi
 - B) Barcha daromadlari tortiladi
 - C) Bir qismi tortiladi
 - D) 75 foizi tortiladi

3. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlar Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish huquqiga egami

- A) ega emas
- B) hududi doirasida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli
- C) hududi doirasidan tashqarida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli
- D) Ha ega.

4. Korxonalar va tashkilotlar soliq idoralariga choraklik buxgalteriya va soliq hisobini o'z vaqtida topshirmasalar, u holda qanday jazoga tortiladilar

- A) Korxonalar to'laydigan soliq 10 foizga oshiriladi
- B) Oldingi chorak uchun Soliq undirib olinadi
- C) Hisobot va tegishli xo'jjatlar topshirilishi bilan oq olinadigan Soliq qaysi hisoblanadi
- D) Korxonalar to'laydigan Soliq 50 foizga oshiriladi

5. Soliq kodeksining loyihasi qachon umumxalq muhokamasiga taqdim qilindi

- A) 1993 yilda
- B) 1994 yilda
- C) 1995 yilda
- D) 1996 yilda

Masalalarni yechish bo'yicha namunalar.

1 – masalaning yechimi :

A) Byudjet daromadining milliy daromadidagi salmog'i:

$$\begin{aligned}1 \text{ yil} &= 126 : 360,5 \times 100\% = 34,95\% \\2 \text{ yil} &= 215 : 450 \times 100\% = 47,78\% \\3 \text{ yil} &= 241,0 : 486,0 \times 100\% = 49,6\% \\4 \text{ yil} &= 249,0 : 500,0 \times 100\% = 49,8\% \\5 \text{ yil} &= 238,0 : 520,0 \times 100\% = 45,76\%\end{aligned}$$

B) Pul jamg'armalarining byudjet daromadidagi salmog'i:

$$\begin{aligned}1 \text{ yil} &= 98,9 : 126,0 \times 100\% = 78,49\% \\2 \text{ yil} &= 106,3 : 215,0 \times 100\% = 49,44\% \\3 \text{ yil} &= 128,9 : 241,0 \times 100\% = 53,48\% \\4 \text{ yil} &= 129,5 : 249,0 \times 100\% = 52,0\% \\5 \text{ yil} &= 116,7 : 238,0 \times 100\% = 49,03\%\end{aligned}$$

B) Pul jamg'armalarining milliy daromadidagi salmogi:

$$\begin{aligned}
1 \text{ yil} &= 98,9 : 360,5 \times 100 \% = 27,4\% \\
2 \text{ yil} &= 106,3 : 450,0 \times 100 \% = 23,6\% \\
3 \text{ yil} &= 128,9 : 486,0 \times 100 \% = 26,5\% \\
4 \text{ yil} &= 129,5 : 500,0 \times 100 \% = 25,9\% \\
5 \text{ yil} &= 116,7 : 520,0 \times 100\% = 22,4\%
\end{aligned}$$

6 - masalaning yechimi :

1 va 2 – kvartallar uchun o'rtacha qoldiqlarni aniqlang.

$$1 \text{ kvartallar} = \frac{1/2 \cdot 205 + 215 + 256 + 1/2 \cdot 230}{3} = 688,5 / 3 = 229,5$$

$$2 \text{ kvartallar} = \frac{1/2 \cdot 230 + 246 + 260 + 1/2 \cdot 260}{3} = 751 / 3 = 250,3$$

1) Aylanma mablaglarning aylanuvchanligi:

1 va 2- kvartallar bo'yicha:

$$1 \text{ kvartal} = \frac{2300}{229,5} = 10,02$$

$$2 \text{ kvartal} = \frac{3400}{250,3} = 13,58$$

2) Aylanishning tezlanishi.

$$\text{Айл.} = 13,58 - 10,02 = 3,56$$

3) Erkinlashgan aylanma mablaglar summasi.

$$\text{Э}1 = 3,56 \times 2300 = 8188$$

$$\text{Э}2 = 3,56 \times 3400 = 12104$$

7 - masalaning yechimi :

$$1) \text{ Sotishning foydaliligi} = \text{Sof daromad (SD)} / \text{Sotishdan sof tushum (SST)} \times 100\% \\ = 262000 / 5400000 \times 100\% = 0,048 \times 100 \% = 4,85\%$$

$$2) \text{ Yalpi foyda} = \text{SST} - \text{Tannarx} = 5400000 - 2970000 = 2430000$$

$$3) \text{ Aktivlarning aylanuvchanligi} = \text{SST} / (\text{A(yil b.akt. q.} + \text{yil oxiri)}) / 2 = 5400000 \\ / (3888000 + 648000) = 5400000 / 2268000 = 2,38$$

$$4) \text{ Aktivlarning daromadliligi} = \text{SD} / \text{A} \times 100\% = 262000 / 2268000 \times 100\% = 11,55\%$$

8 - masalaning yechimi :

$$1) \text{ Kapitalning daromadliligi} = \frac{\text{Akstionerlarning sof daromadi}}{\text{Akstionerlik kapitali}}$$

$$264000 / 1825000 = 0,14$$

$$2) \text{ Akstiyaga foyda} = \frac{\text{Akst. sof foyda}}{\text{Akstilar soni}} = 264000 / 100000 = 2,64$$

$$3) \text{ Akstiya bozor narxining akstiya daromadiga nisbati} = \frac{\text{Akstiya narxi}}{\text{Akstiyaga foyda}} = 100 / 2,64 = 37,9$$

$$4) \text{ Divident to'lanishi} = \text{Divident} / \text{Akstiyalar soni} = 160800 / 100000 = 1,608$$

$$5) \text{ Foizlarning qoplanishi} = \frac{\text{Maj.lar bo'yicha foiz to'lovlari}}{\text{solliqlarni to'laguncha daromad}} \times 100 = 350000 / 690200 \times 100\% = 50,7\%$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I. A. «O`zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yulida» T., «O`zbekiston», 1995 y.
2. Abdullaev YO., Qoraliev T. «Pul: 100 savol va javob» T., «Mexnat», 1996 y.
3. Abdullaev YO., Bobokulov T. «Kredit: 100 savol va javob» T., «Mexnat», 1996 y.
4. Abdullaev YO., SHoxa`zamiy SH. «Qimmatli qog`ozlar: 100 savol va javob» T., «Mexnat», 1997 y.
5. Abdullaeva SH. Z. «Pul, kredit va banklar» T., «Moliya» 2000 y.
6. Erkaev B. A., Karimova G. I. «Bozor Iqtisodiyoti» izoxli lug`at, T., «SHark» NMK, 1997 y.
7. O`masov A., Tuxliev N. «Bozor Iqtisodiyoti» qisqa lug`at-ma`lumotnoma, T., 1991
8. CHjen V. A. «Pul va moliya bozorlari» T., 1996 y.
9. O`lmasov A. «Iqtisodiyot asoslari» T., «Mexnat», 1997 y.
10. Qodirov A., Tursunov A., Turg`unov U. «Iqtisodiyot nazariyasi» T., 1997 y.
11. Leont`ev V. E., Radkovskaya N. P. «Finansi, den`gi kredit i banki» Sankt-Peterburg, 2002 g.
12. Beloglazova G. N., Tolokontseva G. V., «Denejnoe obrashenie i banki» uchebnoe posobie, Moskva, «Finansi i statistika», 2001 g.
13. Romanovskiy M. V., Vrublevskaya O. V. «Finansi, denejnoe obrashenie i kredit» uchebnik, Moskva, 2001 g.
14. «Finansi, denejnoe obrashenie i kredit» uchebnik, Moskva, 2001 g.
15. Kenneth M. Morris, Alan M. Siegel «Guide to understanding money and investing» The Wall Street Journal, Lightbulb Press Inc., 1993.
16. O.Y.Rashidov, I.R.Toymuxamedov va b. «Pul muomalasi, kredit va moliya». T.- 2005y.

«Texno-tasvir» bosmaxonasi
Buxoro sh. Q.Murtazoev ko'chasi 15 uy
513 xona tel. 223-18-02
Buyurtma _____ nusxa
2008 yil